

ALISHER NAVOIY IJODINING O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Barno Mirzayeva

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

Munis Jo'rayeva

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806361>

Annotatsiya: Alisher Navoiy asarlarida xalq og'zaki ijodiga oid ko'plab ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Buyuk mutafakkir ushbu ma'lumotlarni ilmiy asoslab, ularning o'ziga xos xususiyatlariga batafsil yondashganligi bois, ulardan xalq og'zaki ijodining tarixiy asoslarini o'rganishda manba sifatida yondashish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodining o'zbek folklorshunoslari tomonidan o'rganilishi masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, folklor, folklorizm, doston, rivoyat, afsona.

Аннотация: В произведениях Алишера Навои можно увидеть много информации о народном творчестве. Поскольку великий мыслитель научно обосновал эти сведения и подробно подошел к их уникальным особенностям, важно подходить к ним как к источнику изучения исторических основ устного народного творчества. В этой статье обсуждается изучение творчества Алишера Навои узбекскими фольклористами.

Ключевые слова: Навои, фольклор, фольклоризм, эпос, повествование, легенда.

Annotation: In the works of Alisher Navoi, you can see a lot of information about folk art. Since the great thinker scientifically substantiated this information and approached their unique features in detail, it is important to approach them as a source for studying the historical foundations of oral folk art. This article discusses the study of Alisher Navoi's work by Uzbek folklorists.

Keywords: Navoi, folklore, folklore, epic, narrative, legend.

Alisher Navoiy o'z asarlarida xalq og'zaki ijodidan keng va unumli foydalangan. Ayniqsa, uning go'zal dostonlarida xalq og'zaki ijodi ta'siri yaqqol aks etgan. Dostonlar syujetidagi mazmun-mohiyat, kompozitsiyasi, obrazlarning sistemasi, ularning nomlanishi, an'anaviy motivlar kabi qator detallar folklor asarlari bilan hamohang. O'z navbatida, Navoiy ijodining ham folklor asarlariga ta'siri katta bo'lgan. Navoiy ijodi folklor asarlarini boyitgan. Navoiy asarlarining keng tarqalishida uning dostonlari asosida yaratilgan afsona va rivoyatlar, og'zaki hikoyalar, xalq dostonlari muhim o'rin tutgan. Bir so'z bilan aytganda, Navoiy va folklor haqida so'z borganda folklorshunos olim J.Eshonqulov ta'kidlanidek, ikki jihatga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchisi, Navoiy asarlaridagi folklorizm hodisasi, ikkinchi jihat esa Navoiyning xalq og'zaki ijodiga ta'siri [1.181-b]. Navoiy va xalq og'zaki ijodi mavzusi doirasida folklorshunoslikda aynan shu nom bilan ataluvchi bir qancha tadqiqotlar qilingan[2].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O'zbek folklorshunos olimlarining Alisher Navoiy siymosi, uning ijodini o'rganish borasidagi tadqiqotlarida yuqoridagi ikki jihat aks etadi. Dastlab o'zbek folklorshunosligi asoschisi Hodi Zarifov Alisher Navoiy ijodini o'rganish, uni targ'ib va tashviq qilish faoliyatini boshlab bergan. Hodi Zarifov 1926-yil oxirlaridan boshlab o'zbek adabiy tilining asoschisi, o'zbek millatining dahosi, shoir Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga alohida e'tibor qaratgan. Olim Alisher Navoiy mumtoz adabiyotning markaziy siymosi ekanini vaqtida anglagan va uning ijodi yaxlit tarzda o'rganilsa va tadqiq etilsa, mumtoz adabiyotning tarixi to'laqonli shakllanishini bilgan. Shu bois o'tgan asrning o'ttizinchi yillardagi butun faoliyatini Alisher Navoiy ijodini o'rganishga va uning asarlarini chop ettirishga qaratdi. Bu haqda Hodi Zarifov shunday deydi: "1938-yildan boshlab O'zbekistonda Alisher Navoiy ijodini o'rganishga jiddiy ravishda kirishildi. Xususan, 1938-yilning sentyabrida Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish qo'mitasining tashkil etilishi bilan bu ishlar keng quloq yoydi. Shu qo'mitaning mas'ul kotibi Hamid Olimjondan keyin 1939-yildan boshlab men bo'lgandim. Qo'mita ishiga hamda Til va adabiyot institutiga mumtoz adabiyot masalalari bilan shug'ullanib kelayotgan barcha mutaxassislar, Sadriddin Ayniy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Uyg'un, Amin Umariy kabi yozuvchi va shoirlar jalb etildi. Hatto viloyatlarda yashayotgan, arab va fors tillarini mukammal bilgan, madrasa ta'limini olgan Boqiy domla (Mirzaabdulla Nasriddinov) singari ziyolilar ham jalb etildi. Navoiy asarlarini joriy alifboga ko'chirish, qo'lyozma manbalar asosida Navoiy lug'atini tuzish uchun so'z to'plash ishlari boshlab yuborildi... Men Alisher Navoiy lirikasi, uning zamondoshlari, Navoiygacha bo'lgan adabiyotni o'rganishga kirishdim. U paytlarda ulug' shoir hayoti va ijodi haqida yirik monografik tadqiqotlar u yoqda tursin, hatto tuzukroq tahliliy maqolalar ham yo'q edi" [3.87-b]. Ko'rinadiki, Hodi Zarifov 1938–1948-yillarda Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o'tkazish hukumat komitetining dastlab a'zosi, so'ng mas'ul kotibi vazifasini bajargan.

Olim o'sha yillarda Alisher Navoiy ijodini targ'ib va tadqiq etishda jonbozlik ko'rsatdi. U dastlabki ishini Alisher Navoiy ijodini to'liq namoyon etuvchi ko'rgazma tashkil etishdan boshladi. Xuddi shu yili, ya'ni 1939-yilning fevralida o'zi barpo etgan Alisher Navoiy ko'rgazmasining direktori qilib tasdiqlandi. Ko'p o'tmay hukumatning "fotosuratlar ko'rgazmasi hamda Alisher Navoiy portretini chizish bo'yicha konkurs o'tkazish"dek katta vazifa uning zimmasiga yuklatildi. Hodi Zarifov qisqa muddatda O'zbekiston davlat muzeyi huzurida Alisher Navoiyning ko'chma fotosuratlar ko'rgazmasini tashkil etdi. Ko'chma ko'rgazmaning asosiy vazifasi mamlakatning chekka hududlarigacha Alisher Navoiy ijodini targ'ib etish va butun millatni Alisher Navoiy dahosi bilan tanishtirish edi. Bu ishda ham Hodi

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Zarifovning o'zi bosh bo'ldi. Keyinroq, 1940-yilda Hodi Zarifov sa'y-harakati bilan mazkur ko'rgazma asosida Alisher Navoiy muzeyi tashkil etildi. Alisher Navoiy muzeyining 1944-yilda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyiga aylanishi ham, 1957-yilda Alisher Navoiy ijodini o'rganish bo'yicha har yil o'tadigan an'anaviy konferensiyaga asos solinishi ham Hodi Zarifov tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Olim 1957–1972-yillar davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasi rayosati Alisher Navoiy ijodini o'rganish qo'mitasining mas'ul kotibi vazifasida ishladi. Shu davrda Hodi Zarifov Sharq qo'lyozmalarini, jumladan, Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalarini to'plash va ularni davlat fondlariga olishda ham samarali faoliyat olib bordi. Chunki Hodi Zarifov bundan bir oz oldin, ya'ni 1930-yilda Samarqandda G'ozzi Olim Yunusov tomonidan sotib olingan Alisher Navoiy “Xamsa”sining kotibi Abduljamil tomonidan ko'chirilgan nusxasini topish va uni davlat xazinasiga olishda ishtirok etgan edi.

Hodi Zarifov Alisher Navoiy ijodini o'rganishda hammaga ibrat bo'ladigan ishlarni amalga oshirdi. Hodi Zarifov o'zbek mumtoz adabiyotining ilmiy matnlarini yaratish, uning prinsiplarini ishlab chiqib, mumtoz adabiyot matnshunosligini shakllanishida ham munosib hissa qo'shdi. Chunonchi, uning sa'y-harakati bilan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab'ai sayyor” dostonlarining ilmiy nashrlari chop etildi, ushbu ilmiy nashrlariga mas'ul muharrir bo'ldi. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodida Alisher Navoiy obrazining aks etishi tadqiqiga e'tibor qaratdi. Alisher Navoiy siymosi aks etgan xalq rivoyatlarini to'plash ishlariga bosh bo'ldi.

So'z mulkinging sultoni Alisher Navoiy haqidagi xalq rivoyatlarining dastlabki to'planishi o'tgan asrning 20–30-yillarida folklor namunalarini yozib olinishi bilan bog'liq. Atoqli folklorshunos Buyuk Karimov 1930-yilgi Xorazm ekspeditsiyasi chog'ida Urganchdan Navoiy haqidagi ilk xalq rivoyatlarini yozib oladi. 30-yillar oxirlarida matbuotda ham Navoiy haqidagi xalq rivoyatlari e'lon qilina boshlaydi. Navoiy haqidagi xalq rivoyatlarini to'plash borasidagi ishlarni o'rganar ekanmiz, rivoyatlar nisbatan Xorazm hududida kengroq tarqalganligini ko'rish mumkin. 1938-yilda xorazmlik havaskor folklor to'plovchi Hasanov xalq ertaklari va naqlarining chechan ijrochisi 46 yashar Hayit To'xtaboevdan yozib olgan “Otlar oyog'idan suv ichsin”, “Bosh va til” kabi rivoyatlarni Til va adabiyot institutining folklor bo'limi arxiviga topshiradi. Folklorshunos olimlar T.Mirzayev va Mamatqul Jo'rayevlarning keltirishicha, “Xorazm vohasida Navoiy haqidagi xalq rivoyatlari keng tarqalganligini o'zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifovning 1940-yilgi safari ham yana bir bor tasdiqlaydi. Atoqli olim o'zining inqilobiy qo'shiqlari bilan el orasida tanilgan Qurbon sozchi Ismoilov bilan suhbatlashayotib, Navoiy nomi bilan

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bog'liq g'oyat qiziqarli hikoyani eshitib qoladi va uni o'zining kundalik daftariga yozib qo'yadi. H.Zarif nomli O'zbek folklori arxivida 884-11 tartib nomeri bilan saqlanayotgan "Ko'rpangga qarab oyoq uzat" nomli bu rivoyat Navoiy bilan Husayn Boyqaro bahsiga bag'ishlangan bo'lib, ulug' shoirning donoligini namoyish etadi" [4.40-b].

Folklorshunos olimi Manzura Narziqulova o'z tadqiqotida shunday yozadi: "Alisher Navoiy bir tomondan, o'zigacha xalq o'rtasida tarqalgan afsona va rivoyatlarni qayta ishlab o'z asarlariga kiritish orqali ularga yangicha ruh va umr baxsh etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zining o'lmas asarlari bilan folklorning badiiy rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan" [5.73-b].

1968-yilda Navoiy haqidagi xalq rivoyatlardan ilk bor majmua tuzilib, nashr etiladi. Hodi Zarifov muharrirligi ostidagi "Dono Alisher" nomli ushbu to'plam folklorshunos olimlar M.Murodov, Z.Husainova, T.Mirzayevlar tomonidan tuzilgan bo'lib, unda jami 19 ta rivoyat kiritilgan. Nashr izohida rivoyatlarni yozib oluvchi va aytuvchilari haqidagi ma'lumotlar berilgan. Bu ilk to'plam Navoiy mavzusida yaratilgan asarlarning mukammal to'plamini yaratish debochasi edi.

Folklorshunos olimlar tomonidan Navoiyga bag'ishlangan xalq rivoyatlarini yozib olib, nashr etish va ilmiy tadqiq qilish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Bunda H.Zarifov, M.Afzalov, F.Abdullaev, M.Murodov, N.Saburov, Z.Husainova, T.Mirzayev, M.Jo'rayev kabi olimlarimizning xizmatlari katta.

Navoiy va xalq og'zaki ijodi haqida yetuk folklorshunos olim M.Afzalovning tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega. Olim 1948-yili "Sharq yulduzi" jurnalining 5-sonida "Navoiy haqida xalq afsonalari" maqolasini chop ettiradi. Unda folklor ekspeditsiyasi davomida to'plangan Navoiy haqidagi rivoyatlar, afsonalarni tahlil qilgan. Olim 1950-yilda "Farhod va Shirin" dostonining xalq variantlari" nomli nomzodlik ishini himoya qiladi. "Farhod va Shirin" dostonining xalq variantlari borasida keyinchalik S.Ro'zimboev, T.Sobitova, D.O'rayeva, U.Amonov, M.Jo'rayeva kabi folklorshunoslar tadqiqotlar qilishgan.

Folklorshunos olimlar To'ra Mirzayev va Mamatqul Jo'rayevning Navoiy haqidagi rivoyatlar borasidagi salmoqli ishlarini alohida ta'kidlash joiz. T.Mirzayevning Navoiy rivoyatlarining dastlabki to'plami ("Dono Alisher")ni nashr etishdagi va M.Jo'rayev bilan hamkorlikdagi "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1981-yil 9-sonida e'lon qilingan "Alisher Navoiy haqidagi xalq rivoyatlari va ularning manbalari" sarlavhali maqolada yoritilgan nazariy qarashlarni keng jamoatchilikda taqdim etishdagi faoliyati bu borada qilingan muhim ishlar sirasiga kiradi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Navoiy haqidagi xalq rivoyatlarini to'plash va o'rganish ishlarining keyingi bosqichida folklorshunos olim Mamatqul Jo'rayevning xizmati kattaligi bois shu mavzuga alohida to'xtalishni lozim topdik. Olimning Navoiy to'g'risidagi xalq rivoyatlariga oid ishlarini o'rganishda 3 jihat yaqqol ko'zga tashlanadi:

1.To'plovchilik. 2.Tadqiqotchilik. 3.Targ'ibotchilik.

M.Jo'rayev Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlarni to'plash ishlarida o'z hissasini qo'shgan. Olim Buxoro viloyatining Qorako'l tumani Jig'achi qishlog'ida yashagan Xayrulla bobo Mulla Fayzulla o'g'lidan bir nechta rivoyatlarni yozib olgan. Ushbu rivoyatlardan to'rttasi, "Tulpor nasli", "Eng kuchli ne'mat", "Alisher bilan dehqon", "Yaxshidan bog' qoladi" nomli rivoyatlar ommalashtirilgan bo'lib (ya'ni olimning "El desa Navoiyni", "Dono Alisher" nomli Navoiy haqidagi rivoyatlar to'plamiga kiritilgan), qolganlari M.Jo'rayevning shaxsiy arxividadir. Olim Olot tumanida yashab o'tgan Eshon bobo Abdievdan 1988-yil "Qaysi pichoq podshoniki?" rivoyatini yozib olib, uni ham o'zi to'plab nashr ettirgan to'plamlarga kiritgan.

M.Jo'rayevning Navoiy haqidagi xalq rivoyatlarni o'rganishdagi tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, olim nafaqat o'zbek, shu bilan birga shoir haqidagi qardosh turkman xalq rivoyatlarini ham chuqur o'rganganligini ko'ramiz. Olimning Navoiy haqidagi xalq rivoyatlari to'g'risidagi ilk "Xalq ehtiromi (Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar)" nomli maqolasi 1989-yili "Fan va turmush" jurnalining 2-sonida e'lon qilinadi. Unda olim Navoiy siymosini yoritgan xalq rivoyatlarning mavzu ko'lamini haqidagi mulohazalari bilan bir qatorda Navoiy haqidagi turkman rivoyatlarini ham e'lon qiladi. "Daromadning xarjlanishi", "Toshdan telpak tikib bo'ladimi?", "O'ldi" so'zini kim aytdi?" kabi rivoyatlar turkman tilida 1985-yili nashr etilgan "Sirli xazina" to'plamidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga ilk bor tarjima qilinadi. Turkmanlar orasidagi Navoiy haqidagi rivoyatlarning yozib olinishi, o'rganilishi, nashr etilishi haqida ilmiy ma'lumotlar beradi. Olimning "Qardoshlik ehtiromi: Navoiy haqidagi turkman rivoyatlari", "Novayuy xakymdaky ozbek xem turkmen rovatlary" kabi maqolalarida Alisher Navoiy haqidagi o'zbek-turkman rivoyatlarining tarixiy asoslari, yuzaga kelish manbalari, mavzu doirasi, syujet tuzilishi kabi masalalar tadqiq qilingan.

Alisher Navoiy haqidagi xalq rivoyatlarining tarixiy asoslarini o'rganish natijasida, M.Jo'rayev dastlab hikoyat, afsona, naql, ertak, latifa kabi terminlar bilan qo'llangan tarixiy shaxs Navoiy haqidagi og'zaki hikoyalar xalq nasrining tarixiy rivoyat janriga tegishli ekanligini oydinlashtiradi. Alisher Navoiy haqidagi tarixiy rivoyatlar vujudga kelishiga asos bo'lgan dastlabki manba ulug' shoir hayot yo'li va uning sarguzashtlari tasvirlangan voqealardir. M.Jo'rayev Navoiy haqidagi

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

rivoyatlarning yaratilishiga asos bo'lgan ikkinchi manba sifatida an'anaga aylanib qolgan xalq og'zaki ijodi materiallari ekanligini dalillaydi.

M.Jo'rayev Alisher Navoiy haqidagi xalq rivoyatlarini o'rganilishi, tadqiq etilishi, targ'ib etilishi borasida bir qancha betakror tadqiqotlarni amalga oshirgan. Uning Navoiy haqidagi xalq rivoyatlari syujetining tarixiy ildizlari, xalq og'zaki ijodi epik janrlariga munosabati, rivoyatlarning shakllanish davri va badiiy takomili, obrazlar tizimi va syujetini tashkil etuvchi asosiy motivlar singari qator masalalar xususidagi ilmiy merosi qimmatli manba vazifasini bajaradi.

Xalqimizning qadimiy tasavvurlari asosida yuzaga kelgan epik motivlar va obrazlar silsilasidan ijodiy foydalanish o'zbek mumtoz adabiyotida ham o'ziga xos badiiy an'ana bo'lib kelgan. Xususan, ulug' shoir Alisher Navoiy asarlarida genetik ildizlari o'zbek mifologiyasining qadimiy qatlamlariga borib taqaluvchi poetik timsollar va obrazlar silsilasining butun bir tizimi mavjud. Bu esa shoir asarlaridagi mifologizmlarning manbalari, tasnifi va badiiy vazifalarini qiyosiy-tarixiy jihatdan keng ko'lamda tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi. Alisher Navoiy asarlaridagi folklorizmlar, mifologizmlarni o'rganish dolzarb mavzu sanaladi. Bu borada o'tgan asrning oxirlaridan boshlab salmoqli tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Jumladan, M.Jo'rayevning "Kosmogonik mifologiya va Alisher Navoiy ijodi", "Alisher Navoiy asarlarida mifologik obrazlar", "Alisher Navoiy lirikasida "yada" toshi bilan bog'liq mifologik qarashlar" nomli tadqiqotlarida, D.O'rayevaning "Navoiy ijodida folklorizmlar", "Alisher Navoiy g'azallarida ajdaho obrazi" kabi maqolalarida, O.Qayumov, M.Rizoeva, F.Nurmonov, D.Rajabov kabi folklorshunoslar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xulosa qilib aytganda, bitmas-tuganmas xazinani o'z faoliyatida jo etgan, buyuklikning boqiy timsoli bo'lmish Hazrati Alisher Navoiy olamidan bahra olar ekanmiz, uning nafaqat mumtoz adabiyot taraqqiyoti borasidagi balki xalq badiiy tafakkuri rivojidagi xizmatlari beqiyos ekanligiga amin bo'lamiz. XV asr badiiy tafakkuri va folklor munosabatida o'zbek adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy siymosi, uning benazir boy ijodini tadqiq etish hamisha, hamma davrda o'rganilishi muhim bo'lgan dolzarb masalalardan sanaladi. O'zbek folklorshunoslarining, jumladan, ustozlarimizning bu boradagi xizmatlarini e'tirof etgan holda, keyingi avlod folklorshunoslarni cheksiz bo'lgan Navoiy merosini yanada kengroq o'rganishlariga umid qilib qolamiz.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература/ References)

1. Эшонкулов Ж. Алишер Навоий ва фольклор. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент, 2019. – Б. 181-188.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2. Алавия М. Навоий ва фольклор // Саодат. – Тошкент, 1966, 8-сон. – Б.26-27; Асқаров С., Жўраев Ё. Алишер Навоий ва фольклор / ТХ. – 1968, 5 сентябрь; Сафаров О. Алишер Навоий – фольклоршунос // ЎИФ. – Тошкент, 1991. – 7-сон. – Б.37-45; Мадаев О. Навоий ва халқ ижоди / Тошкент университети. – 1968, 15 январь; Мирзаева С. Навоий ва халқ оғзаки ижоди // Андижоннома. – Андижон, 2002. – Б.3; Эшонкулов Ж. Алишер Навоий ва фольклор. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент, 2019. – Б.181-188; Сабирова Н. Навоий ва халқ ижодиёти / ТЗ. – 2015. – 22-сон. – Б.67-71.
3. Мирзаев Т. Ҳоди Зариф суҳбатлари. – Тошкент, 2013. – Б.87.
4. Мирзаев Т., Жўраев М. Алишер Навоий ҳақидаги халқ ривоятлари ва уларнинг манбалари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1991. – 8-сон. – Б.40.
5. Нарзикулова М. “Сабъаи сайёр” достонида фольклоризмлар ва ўзбек фольклорида баҳром сюжетининг талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – Б.73.